

Original paper

## O'QITUVCHI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ QAROR VA BUYRUQLARNI ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA SODDALASHTIRISH



© M.M. Boboyev<sup>1✉</sup>, E.S. Nazarov<sup>2✉</sup>

<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

**KIRISH:** maqolada bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilingan bo'lib, ta'limga oid so'nggi yillarda qabul qilingan eng muhim hujjatlar ro'yxatini shakllantirishda QRkodni ahamiyati, afzalliklarini sanab o'tilgan. Shuningdek, maktab fan o'qituvchilarga faoliyati bilan bog'liq vazirlar Mahkamasining qaror va buyruqlar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

**MAQSAD:** o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq qaror va buyruqlarni zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda soddalashtirish imkoniyatlarini tadqiq qilishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** yig'ilgan materiallarni o'rganish natijasida o'qituvchilar bilishi kerak bo'lgan, ta'limga oid so'nggi yillarda qabul qilingan eng muhim hujjatlar ro'yxatini shakllantirdik, bu QR kodli jadval jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda qisqa vaqt ichida ko'pgina ma'lumotni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Bu uchun dastlab siz jadvalning ikkinchi ustunidagi matn bilan tanishasiz, matn ustiga telefoningiz orqali QR ko'rsangiz, hujjat bilan batafsil tanishib, uni yuklab olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Shuningdek, ta'lim jarayonini optimallashtirish, ma'lumotlarni samarali boshqarish va o'quvchilar natijalarini kuzatib borish kabi faoliyatlarda raqamli vositalar katta ahamiyatga ega.

**XULOSA:** umuman, raqamli texnologiyalarni ta'limda joriy etishning bir qancha muhim afzalliklarini ko'rsatadi:

Interaktiv va multimediami vositalardan foydalanish o'quvchilarni darsga faolroq jalb qiladi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Raqamli vositalar o'quvchilar va o'qituvchilar uchun ta'lim jarayonini soddalashtiradi va ma'lumotlar almashinuvini tezlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** metodist, XXI asr ko'nikmalarini, tendensiya, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalari.

**Iqtibos uchun:** Boboyev M.M., Nazarov E.S.O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq qaror va buyruqlarni zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda soddalashtirish.  
// Inter education & global study. 2024. №9. B.179–186.

## УПРОЩЕНИЕ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ И ЗАКАЗОВ, СВЯЗАННЫХ С ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ УЧИТЕЛЯ, С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

© М.М. Бобоев<sup>1✉</sup>, Е.С. Назаров<sup>2✉</sup>

<sup>1</sup>Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

<sup>2</sup>Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

### Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье рассмотрены особенности использования современных цифровых технологий в системе образования на сегодняшний день, перечислены достоинства, важность Qrcode в формировании перечня важнейших документов, связанных с образованием, принятых за последние годы. Также преподавателям школьных предметов предоставляется Общая информация о постановлениях Кабинета министров и приказах, касающихся их деятельности.

**ЦЕЛЬ:** состоит в исследовании возможностей упрощения решений и команд, связанных с деятельностью учителя, с использованием современных цифровых технологий.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** анализ литературы показывает, что использование современных цифровых технологий повышает производительность образовательного процесса, формирует процесс самостоятельного мышления учащихся.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** изучив собранный материал, мы сформировали список наиболее важных документов, которые должны знать учителя, принятых в последние годы в области образования, эта таблица с QR-кодом помогает легко усвоить большую часть информации за короткий промежуток времени в наши дни, которая развивается с быстрыми снимками. Для этого сначала вы ознакомитесь с текстом во втором столбце таблицы, когда вы увидите QR-код на своем телефоне поверх текста, вы сможете подробно ознакомиться с документом и загрузить его. Кроме того, цифровые инструменты имеют большое значение в таких видах деятельности, как оптимизация учебного процесса, эффективное управление данными и отслеживание результатов учащихся.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** в целом, он показывает несколько важных преимуществ внедрения цифровых технологий в образование:

Использование интерактивных и мультимедийных средств активнее вовлекает учащихся в занятие и повышает их мотивацию. Цифровые инструменты упрощают образовательный процесс для учащихся и учителей и ускоряют обмен информацией.

**Ключевые слова:** методист, навыки XXI века, тренд, медиаграмотность, критическое мышление, исследовательские навыки.

**Для цитирования:** Бобоев М.М., Назаров Е.С. Упрощение принятия решений и заказов, связанных с деятельностью учителя, с использованием современных цифровых технологий. // Inter education & global study. 2024. №9. С. 179–186.

## SIMPLIFYING DECISIONS AND ORDERS RELATED TO TEACHER ACTIVITY USING MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES

© M.M. Boboyev<sup>1✉</sup>, E.S. Nazarov<sup>2✉</sup>

<sup>1</sup>Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

<sup>2</sup>Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

### Annotation

**INTRODUCTION:** the article examines the features of the use of modern digital technologies in the education system today, lists the advantages and importance of Qrcode in forming a list of the most important documents related to education adopted in recent years. Teachers of school subjects are also provided with General information about the resolutions of the Cabinet of Ministers and orders concerning their activities.

**AIM:** to explore the possibilities of simplifying solutions and commands related to teacher activities using modern digital technologies.

**MATERIALS AND METHODS:** literature analysis shows that the use of modern digital technologies increases the productivity of the educational process, forms the process of independent thinking of students.

**DISCUSSION AND RESULTS:** After studying the collected material, we have formed a list of the most important documents that teachers should know, adopted in recent years in the field of education, this table with a QR code helps to easily assimilate most of the information in a short period of time nowadays, which develops with quick snapshots. To do this, first you will familiarize yourself with the text in the second column of the table, when you see the QR code on your phone on top of the text, you will be able to read the document in detail and download it. In addition, digital tools are of great importance in activities such as optimizing the learning process, effective data management and tracking student results.

**CONCLUSION:** in general, it shows several important advantages of introducing digital technologies into education:

The use of interactive and multimedia tools more actively involves students in the classroom and increases their motivation. Digital tools simplify the educational process for students and teachers and accelerate the exchange of information.

**Key words:** methodologist, skills of the XXI century, trend, media literacy, critical thinking, research skills.

**For citation:** M.M. Boboyev, E.S. Nazarov (2024) 'Simplifying decisions and orders related to teacher activity using modern digital technologies', Inter education & global study, (9), pp. 179–186. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. Shuningdek, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Bugungi kun o'qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda AKTdan foydalanishni chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratish darajasida bilimli bo'lishi, darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson, qiziqarli usullarni tanlashi va qo'llay olishi, zamonaviy AKT va multimedia vositalaridan foydalanishi, o'quvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi juda muhim omil hisoblanadi. Sababi, bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimi yuksak darajada rivoj topib bormoqda va bu soha barcha jabhalarda bo'lgani kabi inson omilini yengillashtirishga va qulaylik yaratishga yordam bermoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni o'rganish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Elektron o'quv materiallari, video darslar, taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va o'quv dasturlar yordamida o'quvchilar ta'lim jarayoniga faol jalb qilinmoqda. Masalan, Mayer (2009) multimedia ta'limini samaradorlik nuqtai nazaridan o'rganib, tasvir va audio materiallarni birgalikda qo'llash o'quvchilar bilimni mustahkamlashda muhim ekanligini ta'kidlaydi. Garrison va Anderson (2003) tomonidan masofaviy ta'lim modeli va texnologiyalarning o'zaro integratsiyasi haqida chuqur tahlillar keltirilgan.

Bloomning 1984 yildagi tadqiqoti bu jarayonning ta'limga bo'lgan ta'sirini tahlil qilib, texnologiyalar yordamida shaxsiy yondashuvni kuchaytirish orqali o'quvchilar bilim darajasini oshirishga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar o'qituvchi faoliyatida katta o'zgarishlar kiritmoqda. Zamonaviy pedagoglar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, darslarni yanada interaktiv qilish va o'quvchilar bilan yanada yaqin aloqada bo'lish uchun texnologiyalardan faol foydalanmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonini optimallashtirish, ma'lumotlarni samarali boshqarish va o'quvchilar natijalarini kuzatib borish kabi faoliyatlarda raqamli vositalar katta ahamiyatga ega.

QR-kodi (inglizcha: Quick Response code – tezkor javob kodi; Abbreviatura: QR kod) – dastlab Yaponiyada avtomobil sanoati uchun ishlab chiqilgan matritsali shtrix kod (yoki ikki o'lchovli shtrix kod) turidir. U Masahiro Xara tomonidan yaratilgan. Termin Denso so'zidan olingan bo'lib, u Yaponiyada ro'yxatdan o'tgan savdo brendlaridan biri hisoblanadi. Shtrix kod – birlashtirilgan ob'yekt haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, tegishli mashina o'qiy oladigan optik yorliq sanaladi. QR-kodi ma'lumotlarni samarali

saqlash uchun to'rtta standartlashtirilgan kodlash tizimi (raqamli, alfanumerik, ikkilik va kanji) dan foydalanadi.

QR-kod tizimi tez va oson o'qilishi va Universal Product Code kodlariga nisbatan yuqori sig'imligi tufayli avtomobil sanoatidan tashqarida ham keng ommalashgan. Bular jumlasiga, mahsulotni kuzatish, elementni identifikatsiya qilish, vaqtni kuzatish, hujjatlarni boshqarish va umumiy marketing kiradi.

QR-kod oq fonga to'rtburchak joylashtirilgan qora kvadrati to'rsimon shakllardan iborat bo'lib, ularni turli kamera qurilmalari orqali o'qilishi va tasvir to'g'ri aniqlanmaguncha Reed-Solomon kodlari yordamida qayta ishlanishi mumkin. So'ngra kerakli ma'lumotlar tasvirning gorizonta va vertika qismlarida mavjud bo'lgan naqshlar yordamida chiqariladi.

Ayniqsa, o'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan QR kodlardan foydalanish hamma uchun birdek qulay va imkoniyati kengdir. Quyidagi jadvalda o'qituvchilar bilishi kerak bo'lgan, ta'limga oid so'nggi yillarda qabul qilingan eng muhim hujjatlar ro'yxatini shakllantirdik, bu QR kodli jadval jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda. qisqa vaqt ichida ko'pgina ma'lumotni oson o'zlashtirish ga yordam beradi. Bu uchun dastlab siz jadvalning ikkinchi ustunidagi matn bilan tanishasiz, matn ustiga telefoningiz orqali QR ko'rsangiz, hujjat bilan batafsil tanishib, uni yuklab olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

| T/r | Hujjat nomi                                                                                                                                                                                                                                                                   | QR                                                                                    |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3271.         |  |
| 2.  | "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 823-sonli qarori                                                                                                                       |  |
| 3.  | O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 7-fevraldagi "O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 32-sonli buyrug'i. |  |
| 4.  | Umumta'lim muassasalaridagi fan yo'nalishlari bo'yicha uslubiy birlashmalari rahbarlari bazaviy tarif stavkalariga 10 foiz har oylik ustama haq belgilash mezonlari.                                                                                                          |  |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                       |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| 5.  | Umumta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarning bazaviy ta'rif stavkalariga har oylik ustamalar belgilashda baholash uchun ilovadagi ro'yxatda qayd etilgan fan olimpiadalari, ko'rik tanlovlar, musobaqalar, tadbirlar ro'yxati.                                                                  |    |
| 6   | O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 26-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko'ra fanlarni chuqurlashtirib o'qitish hamda zamonaviy kasblarni o'rgatish to'g'risida"gi 96-sonli buyrug'i. |    |
| 7.  | O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 26-mart "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 94-sonli buyrug'i.                                                             |    |
| 8.  | Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 2008-yil 4-mart 56-son sonli buyrug'i.                                                                                                                                                  |    |
| 9.  | Metod birlashma to'g'risidagi Nizom.                                                                                                                                                                                                                                                             |  |
| 10. | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yilgi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son qarori.      |  |
| 11. | O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 27.12.2023 yildagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasidan 2024-2025-o'quv yilida pedagoglarni qo'shimcha rag'batlantirish to'g'risida"gi 576-son buyrug'i.                                                       |  |
| 12. | O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 31-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 282-son buyrug'i.                                                                    |  |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                                                     |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| 13. | O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2016 yil 30 maydagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining pedagogik kengashi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i.                                                                                             |  |
| 14. | Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-maydagi "Sifatli ta'limni ta'minlashda ijobiy natijalar ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbariyati hamda o'qituvchilariga ustama berish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 263-son qarori.                           |  |
| 15. | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.09.2021 yildagi "Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida"gi 562-son qarori. |  |
| 16. | O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi Vazirligining 2024-yil 5-yanvardagi "Umumta'lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 8-sonli buyrug'i.                                                           |  |

Raqamli vositalar o'quvchilar va o'qituvchilar uchun ta'lim jarayonini soddalashtiradi va ma'lumotlar almashinuvini tezlashtiradi. Bu esa pedagoglarga ma'lumotlarni samarali boshqarish imkonini beradi. Pandemiya davrida masofaviy ta'lim texnologiyalari juda dolzarb bo'lib qoldi. UNESCO tadqiqotlari onlayn ta'lim platformalarining butun dunyo bo'ylab joriy etilishi va rivojlanishini ko'rsatdi, bu esa ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlar yaratdi. Bir qator tadqiqotlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklar ham tahlil qilingan. Masalan, texnologik infrastrukturani to'liq ta'minlashning murakkabligi, o'qituvchilarni raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlash zarurati hamda raqamli vositalarning texnik talablari bu jarayonning qiyin tomonlaridan biridir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarori.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni.
3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 22-sentabrdagi "Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 351-sonli buyrug'i.

4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024 yil 5-yanvardagi "Umumta'lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 8-sonli buyrug'i.
5. <https://meduza.io/feature/2021/07/10/istoriya-qr-koda>
6. <http://www.nacs.org/LinkClick.aspx?fileticket=D1FpVAvvJuo%3D&tabid=1426&mid=4802>.
6. E.S. Nazarov, M.M.Boboyev. Umumta'lim maktablarning 7-sinf o'quvchilariga fizika fanidan xxi asr ko'nikmalarini rivojlantirish. PEDAGOGS. international research journal. Volume-57, Issue-2, May -2024. pp.43-48.
7. E.S. Nazarov, M.B. Teshayeva. Zproblems of teaching methods in amonavi class. Cientific progress journal. Volume 4 | Issue 4 | 2023. pp. 93-96.
8. E.S. Nazarov, M.S. Khusenova. Formation of multifaceted relationships of pupils in secondary education. GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume:22| 2022. pp. 226-228.
9. E.S. Nazarov, M.B. Teshayeva. Zamonaviy fizika ta'limi muammolari va uni takomillashtirish istiqbollari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 3 | 2022. pp. 562-565.
10. MM Boboyev, ES Nazarov. Ilg'or Ish tajribalarini ommalashtirish–mehnatni rag'batlantirish va tajribalarni o'rtoqlashishdir. PEDAGOGS. international research journal. Volume-59. Issue-1. -2024. pp. 149-154.
11. MM Boboyev, ES Nazarov. Improvement of continuous methodological service in the system of general secondary education based on digital technologies. INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH&DEVELOPMENT. Volume 11, issue 09 (2024). pp.101-102.

#### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **M.M. Boboyev**, texnika fanlari nomzodi, dotsent, [**М.М. Бобоев**, Кандидат технических наук, доцент], [**M.M. Boboyev**, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor]; manzil: O'zbekiston, Buxoro, M.Iqbol, 11 [адрес: Узбекистан, Бухара М.Икбол, 11], [address: Uzbekistan, M.Iqbol, 11]

✉ **E.S. Nazarov**, mustaqil tadqiqotchi, [**Э.С. Назаров**, независимый исследователь], [**E.S. Nazarov**, independent researcher]; manzil: O'zbekiston, Buxoro, M.Iqbol, 11 [адрес: Узбекистан, Бухара М.Икбол, 11], [address: Uzbekistan, M.Iqbol, 11]